



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№3. [3]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



2025-yil, №3/[3]-son



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-
AMALIY ELEKTRON JURNALI**

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriiddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), dots.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeov Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD).

Dehkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriiddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr 725 sahifa. E‘lon
qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat
etildi.

Tashmatova Dildora Abdusaitovna

O'zbekistonda marketing faoliyati va unga doir ustuvor yo'nalishlar.....197

Valijonov Nurullo Nodirbek o'g'li

Qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish.....203

Ataxanov Farhodbek Abdumajidovich

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning huquqiy-moliyaviy asoslari.....212

Ruzmetov Qudrat Shermetovich, Turgunov Tolibjon Tursunovich

Raqamli boshqaruv tizimini agrosanoat majmuasida qo'llanilishi.....216

Qarshiyev Istamjon Hayitmurod o'g'li

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning roli va ularning yaimga ta'sirini baholash.....220

Abdullayev O'tkir Abduraim o'g'li

Dukkakli ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.....226

Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li

Mintaqada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish.....234

Kadirova Maral Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich

Milliy kooperativ birlashmalarning rivojlangan mamlakatlardagi institutsional modeli va O'zbekiston iqtisodiyotida adaptatsiya imkoniyatlari.....240

Turobova Hulkar Rustamovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich

Qishloq xo'jaligi chiqindilarini ekologik toza o'g'itga aylantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxiga ta'siri.....246

Насиров Дилшод Фархадович, Уразов Махмуджон Мусинович

Человеческий капитал как фактор устойчивого роста в инновационной экономике.....251

Yusupov Zulunjon Ziyoydinovich

Fermer xo'jaliklarini lizing asosida texnik modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish...257

Джамалова Асаль Сайдувалиевна

Зарубежный опыт повышения эффективности цепочки создания добавленной стоимости в овощеводстве.....264

Murtolibova Madina Mirjamshid qizi

O'zbekistonda mehmonxonalar boshqaruvini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....269

Акбарова Нилуфар Нейматжонова

Марказий Осиё давлатларида мол-мулкга солиқ солиш тизими таҳлили.....274

Bexzod Umarov Batirovich

Yashil menejment tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....291

Mamaev Bahodirjon Nosirovich

O'zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda zamonaviy klasterlash.....297

Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Khusanboy

The ways of improving ecotourism in Uzbekistan.....305

Ergashev Ithomjon Ikromovich

Kichik biznes subyektlarining investitsion jozibadorligini baholash yo'llari.....314

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Milliy valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar.....321

Усмонов Шокиржон Алиевич

Фонд бозорларида банкларни фаоллигини ошириш.....328

Иминов Зафаржон Махамматibroхимович

Аҳоли бандлиги бўйича кўп вариантли статистик прогнозлаш жараёни.....337

DUKKAKLI EKINLAR YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

ABDULLAYEV O‘TKIR ABDURAIM O‘G‘LI

Toshkent davlat agrar universiteti
Biznesni boshqarish kafedrası assistenti

E-mail: uabdullaev1993@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-7988-9585>

Annotatsiya. Maqolada dukkakli ekinlar etishtirishda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy agrar texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari, yuqori unumdorlikka ega urug‘lar va innovatsion oziqlantirish usullari orqali dukkakli ekinlarni etishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy samaradorlik, unumdorlik, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion, dukkakli ekinlar.

Аннотация. В статье проанализированы проводимые в республике реформы в выращивании бобовых культур, а также пути повышения экономической эффективности выращивания бобовых культур с помощью современных аграрных технологий, включая автоматизированные системы орошения, высокоурожайные семена и инновационные методы подкормки.

Ключевые слова: экономическая эффективность, урожайность, современные технологии, инновационные, бобовые культуры.

Annotation. The article analyzes the ongoing reforms in the cultivation of legumes in the republic, as well as ways to increase the economic efficiency of growing legumes using modern agricultural technologies, including automated irrigation systems, high-yielding seeds and innovative feeding methods.

Key words: economic efficiency, productivity, modern technologies, innovative, legumes.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida «Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘lishini kamida 5 foizga yetkazish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan, Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilik bilan parrandachilikni ozuqaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda almashlab ekish dalasida ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida no‘xat ekish keng yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PQ-225-son «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish va ularni xarid qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-martdagi 121-son «Mavjud yer

maydonlaridan samarali foydalanish» hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda ham ushbu yo'nalishda yirik ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, xususan, mazkur tadqiqotlar Mamatov, Suvonova, Abdurashidova (2015) Dukkakli don ekinlarining ahamiyatini o'zining tadqiqotlarida O'zbekistonda dukkakli o'simliklar va uning muammolari haqida batafsil yoritgan bo'lsa, professor Madaliyev (2000) mosh va soyachilikni rivojlanishiga kata xissa qo'shgan, fikricha, dukkakli o'simliklar qishloq xo'jaligida qancha ko'p maydonga ekilsa erning shuncha melorativ holati yaxshilanadi qolaversa erning cho'llanish jarayoni sezilarli qisqaradi. Djurayev (2016) takidlashicha Tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mayda urug'li ekinlar kombinatsiyalash, O'zbekiston qishloq xo'jaligi tizimida ikkinchi ekin bo'sh er maydonlariga samaradorligini oshiradi va oziq-ovqat dasturiga samaraliy ta'sir o'tkazishi takidlab o'tilgan, Nozimov (2016) Holmurodovning ishlarida Qishloq xo'jaligidagi dala maydonlarida bo'sh yotgan unumsiz erlardan dukkakli o'simliklarning suvga va sho'rga chidamli navlaridan nazorat ostida ekilsa qisqa fursatda erning melorativ xolatini yaxshilanishiga olib kelishi alohida baholanadi. Boboqulov, Avazov (2022) "Globallashuv davrida oziq-ovqat ta'minoti xavfsizligini ta'minlashning dolzarb vazifalari"dagi halqaro anjumandag tadqiqot ishlarida Qishloq xo'jaligida dukkakli o'simliklarni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha yangicha ilmiy-amaliy tavsiyalar bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligida dukkakli ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishda statistik ma'lumotlar, tanlanma usulda belgilash, nazariy falsafiy, obyektiv yondashuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. To'plangan ma'lumotlar asosida tizimli hamda taqqoslama yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Dukkakli ekinlar, masalan, no'xat, loviya, mosh va boshqa o'simliklar, qishloq xo'jaligida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat oziq-ovqat manbai sifatida, balki tuproq unumdorligini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Dukkakli ekinlarni etishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirish mumkin

Zamonaviy agrar texnologiyalar, jumladan, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari, yuqori unumdorlikka ega urug'lar va innovatsion oziqlantirish usullari dukkakli ekinlar etishtirishda samaradorlikni oshiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida ekinlarning o'sishi va rivojlanishi yanada tezlashadi, bu esa hosilni oshiradi. Dukkakli ekinlar tuproqni azot bilan boyitish xususiyatiga ega. Ularni ekishdan oldin tuproqni to'g'ri tayyorlash, ya'ni organik o'g'itlar qo'llash va tuproqni mexanik ishlov berish orqali unumdorlikni oshirish mumkin. Shuningdek, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish orqali tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash muhimdir.

Dukkakli ekinlarni etishtirishda oziqlantirish va sug'orish tizimlari muhim rol o'ynaydi. Sug'orishni vaqtida va to'g'ri amalga oshirish, shuningdek, ekinlarga zarur bo'lgan mineral moddalarni qo'shish hosilni sezilarli darajada oshiradi. Buning uchun zamonaviy sug'orish texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi

Dukkakli ekinlar etishtirishda bozor talabini o'rganish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda raqobatbardosh narxlarni belgilash va mahsulotlarni to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga etkazib berish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali marketing strategiyalarini kengaytirish ham foydali bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishchilarining bilim va ko'nikmalarini oshirish dukkakli ekinlar etishtirishda muhim ahamiyatga ega. O'qitish dasturlari va seminarlar tashkil etish orqali fermerlarning tajribasini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam berish kerak. Bu orqali fermerlar o'z ishlarini yanada samarali bajarishi mumkin.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligiga beriladigan subsidiyalar, kreditlar va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlari dukkakli ekinlar etishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Fermerlarga moliyaviy yordam berish, ularning investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Dukkakli ekinlar ekish jarayonida ekologik muvozanatni saqlab qolishga yordam beradi. Ularning ekilishi tuproqning unumdorligini oshiradi va zararkunandalarga qarshi kurashishda yordam beradi. Ekologik qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Dukkakli ekinlar etishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tuproq unumdorligini oshirish, bozor tahlili o'tkazish va ta'limga e'tibor berish zarur. Ushbu chora-tadbirlar orqali dukkakli ekinlar sohasida muvaffaqiyatga erishish mumkin. Qishloq xo'jaligida dukkakli ekinlar etishtirish nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi.

Hozirgi zamonda ekalogiyaning tez fursatlarda keskin o'zgarishi, insoniyatning yildan yilga ko'payishi oqibatda oziq-ovqat havfsizligi va tuproq unimdorligi pasayib ketishi global muammolarga sabab bo'lmoqda.[1] Bu esa o'sib borayotgan aholini oziq-ovqatga va oqsil mahsulotlariga bo'lgan extiyojni qondirishni va tuproq unimdorligini oshirishda dukkakli don ekinlarining qanchalik axamyat kasb etayotganini anglatadi. Yer yuzida dukkakli don ekinlaridan 135 mln gektar maydonga ekiladi. Dukkakli don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon xajmi jihatidan jaxonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o'rinda (25 mln gektarga yaqin)ni egallab, uchinchi o'rinda no'xot (dunyoda jami 10 mln gektarga yaqin) turadi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 – yil 29-martdagi “2019 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va maxsulot etishtirishning pragnoz xajmlari to'g'risida”gi 259-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilanishicha asosiy ekin ya'ni kuzgi bug'doydan bo'shagan 1091630 ga maydonning 824350 gektariga yoki 75.5% ga takroriy ekin ekish rejalashtirilgan bo'lib shundan qariyb 284067 gektarga dukkakli ekinlar yoki moshni 20638 gektar maydonga ekilishi ko'zda tutilgan. Dukkankli don ekinlarining halq xo'jaligidagi foydalanishga ko'ra to'rtta:

- oziq-ovqat (mosh, soya, loviya ko'k no'xat);
- yem xashak (xashaki, no'xat, xashaki dukkak, vika, lyupin va boshqalar);
- universal (buchoq, yasmiq);
- yashil o'g'it (alkoloidsiz lyupin) uchun ekiladigan guruhlarga bo'linadi.

Dukkakli don ekinlari ildizida azot to'plovchi o'simliklardir. Har gektar erga 50–100 kg havodan azot to'plashi aniqlangan. Dukkakli don ekinlari doni tarkibida 21–50% oqsil, somonida 8–14% oqsil, uglevodlar, A,PP,E,B guruhga mansub vitaminlar, aminokislotalar mavjud. Mosh doni tarkibida oqsil, azotsiz moddalar, vitaminlar, temir, kaliy, fosfor, magniy, kalsiy, selen va kam miqdorda natriy mavjud. Bu kabi dukkakli o'simliklar mamlakat iqtisodiyoti va axoli salomatligi uchun dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dukkakli don ekinlarining xosildorligi tuproqlarga ta'siri stress omillarga chidamliligi ularning navlariga bog'liq. O'zbekistonda no'xatning "Palvon", "Zumrad", "Umid", "Yulduz", "Halima", "Malxotra", "O'zbekstanskiy-32", "Lazzat", "Jaxongir", "K-295" va "K-296" navlari yuqori xosildorligi, kasalliklar va tashqi muxitning noqulay sharoitlariga chidamliligi bardoshli bo'lgani uchun keng maydonlarda ekilmoqda[2]. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish omillaridan biri sifatida dukkakli o'simliklar va melioratsiyaning o'rni yuqori bo'lib, tarmoq samaradorligini ta'minlashda birlamchi hamda asosiy bazis rolini o'taydi, chunki, birinchidan, erlar meliorativ holatining talab darajasida bo'lmasligi tarmoqda potentsial samaradorlikni ta'minlash imkonini cheklasa, ikkinchidan, miqdor va sifat jihatdan me'yor talablariga javob bermaydigan mahsulot etishtirishga olib keladi. Shu bois, respublikamizda erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son qaroriga asosan mosh respublikaning barcha hududlarida asosiy va takroriy ekin sifatida ekiladi. Ushbu ekin almashlab ekish tizimida barcha ekinlar uchun eng yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Respublikada ekilayotgan dukkakli donlardan soya, xo'raki no'xat, gorox, yasmiq ekinlari urug'ligini ekish oldi innokulyantlar bilan ishlov berilmasa, ularning ildizida biologik azot hosil bo'lmaydi. Mosh esa respublika hududlarining barcha tuproqlarida avvaldan ekib kelinayotgani tufayli tuproqlarda biologik azot to'plovchi tuganakli bakteriyalari tabiiy shakllanadi hamda ko'chat qalinligidan kelib chiqib, gektariga sof holda o'rtacha 80–120 kg azot to'playdi.

Shuning uchun ham ushbu ekin maydonlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda mosh ekin maydonlari 213 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 232 ming gektar (+20 ming ga) maydonga ekilgan. Don hosildorligi o'rtacha 2,4 sentnerga ortib, jami 360 tonna don etishtirildi.

2023-yilda dukkakli maxsulotlarning eng yuqori xosildorlik ko'rsatkichi Jizzax viloyatiga eng past ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Ammo, erlarning mavjud meliorativ holati, meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslar va sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning mukammal emasligi qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha barqaror rivojlantirish strategiyasida

belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida etarli shart-sharoitlarni yaratishga to'sqinlik qiladi (1-jadval).

1-jadval

Barcha toifaladagi xo'jaliklarda yetishtirilgan dukkakli don ekinlari

T/r	Klassifikator	2021	2022	2023
1	O'zbekiston Respublikasi	439,8	469,5	511,4
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,8	25,1	35
3	Andijon viloyati	26	29,6	28,5
4	Buxoro viloyati	18,8	18,2	25,3
5	Jizzax viloyati	48,5	50,1	54,4
6	Qashqadaryo viloyati	12	10,7	12,5
7	Navoiy viloyati	8,6	8,9	8,9
8	Namangan viloyati	65,1	69,7	86,1
9	Samarqand viloyati	105,4	91,2	96,4
10	Surxondaryo viloyati	29,8	31,3	36,7
11	Sirdaryo viloyati	40,1	52,5	27,1
12	Toshkent viloyati	20,6	25,3	25,3
13	Farg'ona viloyati	43,4	52,3	70,1
14	Xorazm viloyati	6,7	4,6	5,1
15	Toshkent shahri	0,01	0,01	0,004

Shu sababli agrar islohotlarni amalga oshirishda meliorativ tadbirlar va ularga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larning iqtisodiy samaradorligini baholash va hisoblash usullarini takomillashtirish, uning qishloq xo'jaligi korxonalari daromadlarini ko'paytirishga ta'siri meliorativ tadbirlarni moliyalashtirish manbalarini, uni rivojlantirishning yaqin kelajakka mo'ljallangan strategik yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan takliflar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Asosiy suv resurslarimiz transchegaraviy bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining zimmasiga to'g'ri kelishi va ularning yuqori oqimida joylashgan qo'shni davlatlarning suvni boshqarishdagi bir tomonlama xatti-harakatlari respublikamiz suv ta'minotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, Tojikistonda va Qirg'izistonda qurilgan To'xtagul, Nurek va Qayroqum yirik suv omborlarining irrigatsiya rejimidan energetik rejimga o'tkazilishi daryolar suv oqimining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Qo'shni davlatlarning suv omborlarini energetik rejimda ishlashini quyidagi misollarda aniq ko'rishimiz mumkin. Sirdaryo havzasi bo'yicha: To'xtagul suv ombori Norin daryosida joylashgan bo'lib, 19,5 mlrd.m³ umumiy suv sig'imiga ega. Bu mazkur suv omborining suv sig'imi Norin daryosining yillik oqimidan 1,5 baravar ortiqqligini ko'rsatadi shuning uchun ham suv kam talab etiladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish maqsadga muvofiq [3].

Mamlakatimizda “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi, chunonchi;

-oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash va iste‘mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

-qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘rinishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

-yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish; shular jumlasidandir.

2-jadval

Respublikada 2023-yil hosili uchun dukkakli maxsulotlar yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi (tonna)

T/r	Viloyatlar kesimida	Dukkakli
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16 590
2	Andijon viloyati	25 454
3	Buxoro viloyati	10 453
4	Jizzax viloyati	114 648
5	Qashqadaryo viloyati	58 797
6	Navoiy viloyati	15 561
7	Namangan viloyati	85 325
8	Samarqand viloyati	65 801
9	Surxondaryo viloyati	70 464
10	Sirdaryo viloyati	51 693
11	Toshkent viloyati	58 273
12	Farg‘ona viloyati	32 632
13.	Xorazm viloyati	8 849
14.	Toshkent shahri	1 086
	Jami	615 625

Maydonlarga ekilayotgan dukkakli don ekinlari xosilining miqdori, tuproq sharoitiga, naviga, turli stress omillariga bog‘liq xolda turlichadir. Dukkakli don ekinlarini etishtirishdagi muammolardan biri sho‘rlangan sharoitda, qurg‘oqchilik ta‘sirida tuganaklarning xosil qilmasligidir.

Yerlarning ortiqcha sho‘rlanishi sho‘rlanmagan erlarga nisbatan kam hosil beradi. Yuqori hosil olishda davlat va erdan foydalanuvchilardan katta mehnat va etarlicha

mablagʻ talab etiladi. Shuning uchun erdan toʻgʻri, unumli foydalanib, doimo erning hosildorligini oshirish, davlat siyosatining mintaqaviy, hududiy va mahalliy hamda mamlakat va har bir xoʻjalikning iqtisodiy yagona tizimini rivojlantirish rejalarining bir boʻlimi sifatida qarash lozim. Hozirgi vaqtda respublikaning 2170,7 ming gektardan ziyod sugʻoriladigan erlari turli darajada shoʻrlangan boʻlib, shundan 17,5 ming ga - shoʻri yuviladigan erlar, 1344,6 ming ga - kuchsiz shoʻrlangan, 663,5 ming ga - oʻrtacha shoʻrlangan va 162,6 ming ga - kuchli shoʻrlangan erlarni tashkil etadi. Tuproqning unumdorligiga salbiy taʼsir etuvchi asosiy jarayonlardan biri - suv va irrigatsiya eroziyasidir. Buni koʻrsatkichlarda izohlaydigan boʻlsak, Oʻzbekistonda shoʻrlangan erlar sugʻoriladigan erlarning 50,7% (2170,7 ming ga.) ni tashkil etib, shundan kuchsiz shoʻrlangan erlar 31,4% ni, oʻrtacha shoʻrlangan erlar -15,5% ni, kuchli shoʻrlangan erlar -3,8% ni tashkil etadi. Yaylovlar maydoni -20,8 mln ga, shundan -18,7 mln ga. sugʻoriladigan, 1,6 mln. ga - degressiyaga uchragan erlar, 15,1 mln. gektardan ziyod erlar xoʻjalik maqsadlarida foydalanilmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xoʻjaligi tarmogʻida dukkakli maxsulotlar va ulardan samarali foydalanish va mamlakatimiz boʻylab takroriy ekin maydonlarini koʻpaytirish yildan yilga qiyin masalaga aylanib bormoqda. Bunga asosiy sabablar deb yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarning yuzaga kelishiga gidrotexnik inshootlar, kollektor-drenaj tarmoqlari va umuman irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilayotgan moliyaviy mablagʻlardan oqilona foydalanmaslik holatlari hamda mehnat normalariga eʼtibor bermaslik marketing tadqiqotlarni olib bormaslik sotish jayoniga ham maʼlum darajada oʻz salbiy taʼsirini oʻtkazmoqda. Tahlil natijalariga koʻra ushbu tizimda oqsayotgan qadamlarni ilgʻorlash uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

– qishloq xoʻjaligi tarmogʻida takroriy ekin maydonlarini kengaytirish va er – suv resurslari va ulardan samaraliy foydalanish boʻyicha meliorativ tadbirlarni amalga oshiruvchi suv xoʻjaligi tashkilotlari oʻrtasida oʻzaro tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmini etarli darajada shakllantirish;

– dukkakli ekinlar ekilishi tuproqlarning ozuqa moddalari bilan boyitilishiga va axolining oqsilli oziq ovqat maxsulotlari bilan taminlashga sabab boʻladi. Uning uchun qishloq xoʻjaligi tarmogʻi bilan oziq-ovqat dasturi programmasi bir biri bilan integratsiya tizimini yanada optimallashtirish va uzoq muddatli istiqbol rejalarini ishlab chiqish kerak.

– qishloq xoʻjaligi tizimining choʻllangan xududlarida suvsizlikka chidamli va serxosil dukkakli oʻsimliklarni (mosh, loviya, fasol) va boshqa turlaridan xorij tajribalari asosida koʻplab maydonlarga ekish, natijalari boʻyicha qisqa fursatli maʼlumotlarni berib borish..

– dukkakli ekinlar ekilishga moyil boʻlgan xududlarni yoʻl xaritasi ishlab chiqilib aniqlash va maydonlarining unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv taʼminotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng koʻlamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirishdan iboratdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboqulov Z.R. Avazov M.M. (2022) “Globallashuv davrida ozoq–ovqat ta’minoti xavfsizligini ta’minlashning dolzarb vazifalari”. Respublika miqyosidagi ilmiy–amaliy konfirensiyaning ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand QK KMTM,—B. 213-215.
2. Djurayev A.D. (2016) Tuproqqa ekish oldidan ishlov beruvchi mayda urug‘li ekinlar kombinatsiyalashgan agrigat. Monografiya Qishloq xo‘jaligi.—T.
3. Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqarish, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, fevral. № 2-son.
https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss2

